ABDULLA QAHHORNING “MAYIZ YEMAGAN XOTIN” HIKOYASINING LINGVISTIK TAHLILI

Safarova Hamrooy Qahramon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
safarovahamooy@gmail.com

Annotatsiya. Barcha zamonlarda ayol siymosiga, ayol xarakterini ochib berishga bag‘ishlangan asarlar yaratilgan. Bu esa ayolning jamiyat va insoniyat hayotidagi o‘rni, ayol timsolining dolzarbligidan dalolat beradi. Jamiyatda xotin-qizlarning tengligi, ozodligi uchun erkaklar bilan tengma-teng ishlashi mavzusi yorqin badiiy shaklda ochiladigan hikoyalardan biri bu Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidir. Maqolada ham inson ruhiyatining murakkabligi, o‘sha davr va jamiyat istilosi haqida, shu bilan birga til va adabiyot uyg‘unligi, hikoyada til birliklarining o‘rni, haqida bayon etilgan.

Kalit so‘z: frazema, urf-odat, fenomen, yo‘nalish, stil, obrazlilik, reallashuv, ironiya.

Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” asari oddiy, ammo chuqur ma’noli voqeani hikoya qiladi. Avvalo, ushbu asarning tili, yozilish stili haqida so‘z ochsak: ushbu asar o‘ziga xos yo‘nalishda, ayanchli voqealar, ayollarning huquq va majburiyatlari haqida “noto‘g‘ri” tasavvur va “mish-mishlar” haqida ochiq bayon etiladi. Asarning markaziy mavzusi ayollarning an’anaviy jamiyatdagi nogiron qilib qo‘yilgan mavqeyi va ko‘r-ko‘rona urf-odatlarga qattiq tanqidi, ayollar ilmsiz bo‘lishlari, jamiyatda faqatgina suyukli ayol va ona

rolida bo‘lishlari kerakligi, ayollar huquqi, xohish-istaklari, orzu-maqsadlari yo‘q qilinishi kerakligi ochiqlanadi. Vaholanki, ayollar ilmsiz bo‘lgan jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Masalan, o‘tmishga nazar solsak, buyuk sarkarda Amir Temur, g‘azal mulkining sultoni – Alisher Navoiy, muhaddis Imom Buxoriylarning onalari ilmli, oqila, pokdomon ayollar bo‘lib, farzandlarini buyuk shaxs bo‘lib yetishishi uchun ilmga burkab tarbiyalaganlar. Ilmli ona – jamiyat quroli.

Abdulla Qahhor o‘z uslubi – psixologik ta’sir kuchi, oz hajm, teran va chuqur ma’no orqali jamiyatdagi noqis voqealarni yoritadi. Asardagi obrazlar ham shu yo‘nalishga mos tarzda tanlanadi. Asardagi bosh qahramon – Mulla Norqo‘zi. Jamiyatdagi ayollarning ilmsiz bo‘lishi, o‘z kasbi, mutaxassisligiga ega bo‘lmasligi, fikr erkinligi, kiyinish erkinligidan mahrum holda yashashi uchun va’z o‘qib yuruvchi diqqatsiz qahramon. Mulla Norqo‘ziga bir so‘z bilan ta’rif beradigan bo‘lsak, amali ilmiga to‘g‘ri kelmaydigan beburd obraz. Uning ayoli esa tashqaridan qaraganda o‘zini ilmli, amali ilmidan go‘zal, pokdomon qilib ko‘rsatuvchi, aslida esa, ichki sifatlarini *“yetti qavat parda ichiga”* yashirgan munofiq ayol obrazidir. Xuddi shunday insonlar borligi uchun ham ayollar o‘z huquq va erkinliklaridan mahrum bo‘layotganligini tanqid qilib ochiq tasvirlaydi. Abdulla Qahhor frazemalardan foydalanish orqali o‘z asarlari va asarlaridagi qahramonlar xarakterini yoritib beradi. Masalan, Mulla Norqo‘zi tilidan aytilgan: “Sotiboldining xotini dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob-muomala qiladi: axir, bittasi bo‘lmasa bittasi ko‘z qisadi-da! Meliqo‘zining xotini avtobusda konduktor, ba’zan yarim kechada keladi; ishi erta tugagan kuni ham yarim kechagacha yursa, ayshini qilsa eri bilib o‘tiriptimi?” [1.86]. Ushbu satrlar orqali asosiy obraz – din ulamosining insonlar haqida yomon gumonda bo‘lishi, g‘iybat qilishi orqali salbiy voqeliklarni ko‘rsatadi, ya’ni ilmi amaliga mos bo‘lmagan xarakter egasi ekanligini, *“ko‘r ko‘rni qorong‘uda topar”* deganlaridek, xotini ham undan qolishmasligini ko‘ramiz. Uning ayoli tilidan: “Hazilingiz qursin! - dedi chiroqni pastlatayotib, - kishining *imonini qochiradi.* Ochilish u yoqda tursin, ochiq xotinlarning yuzini ham ko‘rmayman, deb ont ichganman. Bir kuni besh-oltita ochiq xotin orasiga kirib qolib, ne vaqtgacha *ko‘nglim g‘ash, ta’bim kir bo‘lib* yurdim”. Bu yerda qahramon o‘zini juda imonli, sadoqatli yor sifatida ko‘rsatadi. Ammo asar so‘ngida yozuvchi uning munofiq xarakter egasi ekanligi ochib beradi. Frazemalar faqatgina asar emotsionalligini, badiiy tilini ochibgina qolmay, obrazlar xarakterini kuchaytirib ifodalash uchun xizmat qiladi.

Abdulla Qahhor asar estetikasini, emotsionalligini kuchaytirish maqsadida til birliklaridan ham unumli foydalanib alohida fenomonik asar yaratgan. Masalan, yuqorida keltirilgan asarning lingvistik tahlilini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda frazeologizmlardan salmoqli foydalanganligi uchun ham asarning badiiy emotsionalligi kitobxon aqlini, qalbini va butun vujudini qamrab oladi. Yozuvchi asarda quyidagi frazemalardan foydalangan:

“Mulla Norqo‘zi har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi va ko‘ngli tortgan odamlarni atrofiga to‘plab, yarim kechagacha shariatdan yuz o‘girgan xotinlar to‘g‘risida shunday vaysab o‘tiradi” [1.88]. Ushbu gapning o‘zida yozuvchi ikkita – *“yuz o‘girmoq”* hamda *“ko‘ngli tortmoq”* frazemasidan foydalanadi va bu frazemalar Shavkat Rahmatullayevning O‘zbek tilining frazeologik lug‘atida biror shaxs yoki voqeaga qaramaslik, yuzini burish ma’nolarini ifodalaydi [5.308]. Abdulla Qahhor esa buni parchada “vos kechish” ma’nosida qo‘llaydi. *“Ko‘ngli tortmoq”* iborasi esa *“yoqtirmoq”* ma’nosini anglatadi. Asarda esa “o‘zi istagan, xohlagan” ma’nosini ifoda etadi. Mazkur iboralar bir gap ichida ishlatilishi bilan yozuvchining san’atkorona mahorati, teran fikrlashini yuqori saviyada ko‘rsatadi.

“Bo, xudo, paranjini tashlab ko‘chada yurishga yuzi chidagandan keyin uyati bormi!”. *“Yuzi chidamoq”* frazemasi esa uyat-andisha qilmoq, nomus qilmoq ma’nolarini izohlab

kelib, asarda ibo-hayo milliy qadriyatlardan biri ekanligini, bu yerda esa andisha qilish ma'nosida kelmoqda. Yozuvchi asarlarida qo'llagan frazemalar bilan hikoyaning ekspressiv bo'yoqdorligini ham oshirib, kitobxon dqqatini tortadi. Har bir parchada asar g'oyasini, xarakterini hamda yozilish uslubini ham ko'rsatib boradi. "Sotiboldining xotini dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob-muomila qiladi: axir, bittasi bo'lmasa bittasi ko'z qisadi-da!" [1.89]. Avvalo, qahramon nutqini tanqid ostiga oladigan bo'lsak, Mulla Norqo'zi har bir ayollar harakatidan buzuqlik holatlarini qidiradi, hikoya orqali erkaklarning bilib-bilmay ig'vo va g'iybatlarga aralashishi, ayollarning ishlashiga bo'lgan qarshiliklar ochiq-oydin o'z aksini topadi. Ba'zi qo'shtirnoq ichidagi erkaklar ayollarning o'qimishli bo'lishiga qarshi chiqadi. Albatta, g'iybat qilish erkaklarga xos bo'lmagan eng yomon illatlardan biri hisoblanadi. Mulla Norqo'zi ayollarning paranjisi-yu, qayerda ishlash-ishlamasligini gapirar ekan, o'zining qanchalar tuban kishi ekanligini ko'rsatib beradi. Frazemaning izohiga keladigan bo'lsak, *"ko'z qismoq"* – "imlash", "jalb qilish" singari mazmunni anglatadi. Asarda ham aynan "imlash", "chaqirish" ma'nosini izohlaydi.

"Ochiq xotin-qizlarning har bir harakatidan mulla Norqo'zi buzuqlikka dalolat qiladigan talay belgilar topadi. "*Yetti qavat parda ichida"* o'tiradigan o'z xotini esa bular qarshisida ko'ziga farishta bo'lib ko'rinadi". Hikoyaning eng achinarli joyi shundaki, erkaklar birovning g'iybatini qilguncha, o'zining xotinini vaqtida bu sharmandali yo'ldan qaytara olmaganidir. Agar Mulla Norqo'zi ko'chadagi xotin-qizlarni gapirguncha, o'zining xotiniga e'tiborli bo'lganda edi, asar oxirida el-yurt oldida bunday mazlum bo'lmas edi.

"Xotin chars bedanaday patillab, qochmoqchi bo'lganida yuzini karnaygulning poyasiga urib oldi. Yuzi butoqqa yomon tegdi. *Ko'ngli ozdi*". Ushbu frazema Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'atida "bexush bo'lmoq" deya izohlaydi [5.151]. Yozuvchi ham aynan ko'ngli aynishi, behush bo'lish holatlarini tasvirlamoqchi bo'ladi. "Umuman, yozuvchi til elementlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratadi. Qahramonlar xarakterini ochishda ichki va tashqi nutqdan o'rinli foydalanadi. Asarda alamzadalik holatlari ham keltiriladi ya'ni Mulla Norqo'zining ayoli bilan suhbatida bu yaqqol ko'rinadi" [2.47]. Quyidagi parchada aynan frazema orqali voqea ekspressivligi oshiriladi. "Mulla Norqo'zi hazil bilan uning alamini bosmoqchi bo'ldi". "*Alamini bosmoq*" iborasi Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'atida *"alamini olmoq"* shaklida keltirilgan bo'lib, "kishi o'zining alamzadaligini tarqatish uchun boshqalarga zulm qilinishi" izohlanadi [5.19]. Asar tilida esa bu frazema Norqo'zining ayolining ruhiy holatini sal kuchliroq ko'rsatish uchun mohirona qo'llangan. Badiiy asarlarda, she'riyatda iboralar shu qadar muhim o'ringa egaki, asar jumlalarini shunchaki boyitibgina qolmay, bir so'z bilan butun asar g'oyasini ham hikoya qiladi. Masalan, *"yuzini qora qilmoq"* iborasiga to'xtalsak, asarda bosh obraz, din ulamosi bo'lishiga qaramay *"ko'ngli qora", "yuzi shuvut"* obraz. *"Bir ayolning hiylasi qirq tuyaga yuk bo'lar"* deganlaridek, Mulla Norqo'zining xotini ham qirq tuya ko'tara olmaydigan hiylalar egasi. Bunga yana bir dalil ayoli tilidan aytilgan jumla: "Zerikkan bo'lsangiz, u dunyo-bu dunyo yuzimni qora qilmasdan, javobimni bera qoling...". Bu yerda keltirilgan frazema *"yuzini qora qilmoq"* ayolining yana bir hiylasi, o'zini yaxshi, oriyatli inson sifatida ko'rsatishini izohlab, obraz sifatlarini kuchaytirish uchun ishlatilingan. Yana bir jumla yuqorida aytib o'tilgan fikrlar tasdig'idir. "U bir hafta bo'yi qovog'ini ochmadi, uch kecha o'rnini boshqa solib yotdi". Bir hafta davomida *"qovog'ini ochmadi"* g'urur va hayoni saqlash maqsadida qilingan yana bir hiyla. Haqiqatan, Mulla Norqo'zi va ayoli tilidan aytilgan har bir frazema va jumlalar ularning yolg'onchi, hiylakor, beburd obrazlar ekanligining isboti bo'lib kelmoqda. "Hazilingiz qursin! - dedi chiroqni pastlatayotib, - kishining *imonini qochiradi.* Ochilish u yoqda tursin, ochiq xotinlarning yuzini ham ko'rmayman, deb ont ichganman. Bir kuni besh-oltita ochiq xotin orasiga kirib

qolib, ne vaqtgacha *ko‘nglim g‘ash, ta’bim kir bo‘lib yurdim.* Tushimda rahmatlik dadamni ko‘rdim, men bilan gaplashmadilar. Gapni ko‘ring-a, aytgani kishining yuzi chidamaydi”. Ayol obrazining tilidan berilgan bo‘lib, voqealar uning o‘zini halol, pok, e’tiqodli inson sifatida ko‘rsatishga urinishlari orqali yoritiladi. Aslida esa bu da’volarning ortida ikkiyuzlamachilik, riyokorlik va soxta or-nomus yashiringan. Muallif hikoyada bu holatlarni bevosita tanqid qilmaydi. Aksincha, xalqona til, yumor va badiiy kinoya orqali o‘quvchini o‘ylantiradi. Ayol obrazi bu yerda jamiyatdagi ma’lum bir ijtimoiy qatlamning timsoli sifatida berilgan. U o‘zini “halol”, “pok” deb taqdim etadi, ammo amalda bu sifatlarni o‘zida namoyon qilmaydi. Bu orqali muallif gap va amal orasidagi tafovutni tanqid qiladi. Shu bilan birga, bunday obraz orqali u axloqiy qadriyatlarning jamiyatda sun’iylashib borayotganiga e’tibor qaratadi. Yozuvchining bu yerda ishlatgan tili - sodda, xalqona, ammo mazmunan juda chuqur. Oddiy so‘zlar, takroriy iboralar va obrazli ifodalar orqali muallif kinoyaning ta’sirchanligini nafaqat oshiribgina qolmay, nafaqat ijtimoiy tanqid, balki o‘quvchiga estetik zavq beruvchi asar sifatida ham baholanadi.

“Orqamga qaramay bir qochdim... Shariat xotinni qattiq tutish kerak deydi-yu, ammo xotinni qancha *qattiq tutsangiz*, shuncha *g‘aflatda qolishingizni* poylaydi”. Ushbu jumla uchinchi shaxs tomonidan aytilgan bo‘lib, jamiyatda shu kabi noqis fikrlaydigan shaxslarning mavjudligi, ayollarga har sohada qarshi bo‘lishlari, eng achinarlisi ayollar haqida doim noto‘g‘ri va noo‘rin gapirishlari o‘sha davrda tarqalgan vabo bo‘lganligining yaqqol misolidir.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, Abdulla Qahhor hikoyada oddiy va tushunarli tilni qo‘llagan holda, kundalik hayotdagi voqealarni badiiy ifodalash orqali o‘quvchilarga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Hikoya qisqa bo‘lsa ham, uning mazmuni chuqur va ko‘p qirrali. Asar o‘zbek adabiyotida gender masalalarini ko‘tarish va an’anaviy jamiyat qarashlarini tanqid qilish bo‘yicha muhim o‘rin tutadi. Hikoyada jamiyat ayollarning harakatlariga nisbatan ikkiyuzlamachi munosabatini ekani ochiqlanadi. Mulla Norqo‘zi boshqa ayollarning harakatlarini qoralaydi, lekin o‘z xotinining pokdomonligi haqida haddan tashqari ishonch hosil qiladi. Bu uning qarashlari qanchalik noaniq va ikkiyuzlamachi ekanligini ko‘rsatadi. Yozuvchi asar g‘oyasini jamiyatdagi achinarli voqealar va adolatsizliklardan oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhor. Anor hikoyalar to‘plami. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi. 2012.200b.
2. Mo‘minova, T. S. Badiiy asarda nuqtayi nazar va xarakter ifodasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 768-774. 2022.
3. Rustamova, I., & Mamayusupov, S. AUTHOR’S POSITION AND STORY FUNCTION IN ABDULLAH QAHHOR’S STORY" HEADLESS MAN". Oriental Journal of Social Sciences, 2(03), 120-127. 2022.
4. Rajabov, A. O‘zbek adabiyotida kinoya va istehzo. Toshkent: Fan nashriyoti. 2012
5. Shavkat Rahmatullayev, O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati, Qomuslar Bosh tahririyati, Toshkent – 1992, 370 b.